UDK: 636.22/28

QORAMOLCHILIKNING RIVOJLANTIRISHDA SELEKSIYA-NASLCHILIK ISHLARINI AHAMIYATI

B. Sh. Boybulov
q.x.f.n., katta ilmiy xodim
N. Xoliqov
Sh. Axatova
laborantlar
Chorvachilik va parrandachilik
ilmiy-tadqiqot instituti
Qashqadaryo ilmiy-tajriba stansiyasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23762690

Annotatsiya: Respublikamizda chetdan keltirilayotgan zotli qoramollar sut, go‘sht yo‘nalishda ega ekanligi, ularni iqlim sharoitiga yaxshi moslashtirish, turli kasalliklarga chidamliligini va avlodlarining mahsuldorligini oshirish maqsadida naslchilik hujjatlarini yuritishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, chorva mollarini yil bo‘yi tabiiy yaylovlarda boqib, mahsuldorligini oshirib bo‘lmaydi. Biroq, respublikamiz aholisini chorva mahsulotiga bo‘lgan talabini qondirish zarur. Buning uchun, avvalo, oqsilli, to‘yimli ozuqalar yetishtirish va bu orqali hayvonlar mahsuldorligini oshirish lozim. Chorvachilikni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri mollarni to‘la qiymatli oziqlantirish ularni asrash va saqlash sharoitlarini yaxshilash hamda yosh mollarni yaxshi parvarishlashdir.
Kalit so‘zlar: Qoramol, chorva, ozuqa, naslchilik, zot, nasl, sut, go‘sht.

Аннотация: В республике импортируемые породистые коровы имеют молочное и мясное направление продуктивности; в целях хорошей их адаптации к климатическим условиям, повышения устойчивости к различным болезням и продуктивности потомства важное значение имеет использование современных технологий при ведении племенной документации. Известно, что круглогодичным выпасом скота на природных пастбищах повысить продуктивность невозможно. Однако необходимо удовлетворить потребность населения республики в продукции животноводства. Для этого прежде всего необходимо производить белковые, питательные корма и тем самым повышать продуктивность животных. Одним из основных факторов развития животноводства являются полноценное кормление скота, улучшение условий его содержания и хороший уход за молодняком.
Ключевые слова: Крупный рогатый скот, животноводство, корм, племенное дело, порода, потомство, молоко, мясо.

Annotation: The purebred cattle imported into our republic are of dairy and beef types. In order to adapt them well to the climatic conditions, and to increase their resistance to various

diseases and the productivity of their offspring, the use of modern technologies in maintaining breeding records is of great importance. It is well known that productivity cannot be increased by keeping livestock on natural pastures all year round. However, the demand of the republic's population for livestock products must be met. To this end, it is first of all necessary to produce protein-rich, nutritious feed and thereby raise animal productivity. One of the main factors in the development of livestock farming is complete, balanced feeding, improved housing and keeping conditions, and good care of young animals.

Keywords: Cattle, livestock farming, feed, breeding, breed, offspring, milk, meat.

Respublikamiz aholisiga arzon va sifatli go‘sht va sut mahsulotlarini yetkazib berishda, chorva mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirishda qishloq xo‘jalik hayvonlarining, xususan qoramollarning asosiy seleksiya belgilarini takomillashtirish katta ahamiyatga ega. Ushbu masalani hal etishda qoramollarni to‘la qiymatli oziqlantirish bilan birga, seleksiya-naslchilik ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi.

Ma’lumki, chorvachilikda seleksiya-naslchilik ishlarini olib borish jarayonida juda katta birlamchi statistik ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash talab etiladi. Jumladan seleksiya-naslchilik ishlari talablari asosida har bir bosh nasldor qoramolga tegishli to‘liq ma’lumotlarni uning tug‘ilgan vaqtidan toki (seleksiya-naslchilik ishlari uchun yaroqsiz bo‘lib) podadan chiqarilgunga qadar qayd etib borish, ya’ni nasldor qoramollar hamda yuqori mahsuldor sigirlar podasini barpo etishda ushbu ma’lumotlardan foydalangan holda qoramolchilikda urchitish hamda chatishtirish ishlarini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil qilish dolzarb masala hisoblanadi. Hozirgi kunda, qoramolchilikda seleksiya-naslchilik ishlariga oid birlamchi ma’lumotlarni qog‘ozli texnologiya asosida to‘plash va qayta ishlash samarasiz bo‘lib, seleksiya-naslchilik ishlarini sifatini va mollarni mahsulot berishini nazorat qilish samaradorligini pasayishiga olib keladi. Qoramolchilikka ixtisoslashgan naslchilik fermer xo‘jaliklari faoliyatini sohaga oid davlat tashkilotlari xizmatlari tomonidan samarali qo‘llab-quvvatlash ushbu xo‘jalikdagi naslchilik-seleksiyaga oid ma’lumotlarni chuqur o‘rganishni talab etadi. Lekin hozirgi kunda chorvachilik fermer xo‘jaliklarning tegishli davlat tashkilotlari bilan ma’lumot almashinuvchi aksariyat hollarda qog‘oz shaklida amalga oshiriladi va bu ham ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash va samarali boshqaruvni tashkil etishga to‘sqinlik qiladi.

So‘nggi yillarda respublikamizda urchitilayotgan zotli qoramollar nasldor buqalar bilan juftlashtirilib, yuqori mahsuldor podalar yaratilmoqda. Olingan ma’lumotlarni tahlil etish, ushbu urchitishdan olingan hayvonlarning mahsuldorlik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘layotganligini ko‘rsatmoqda.

Chorvachilikdagi ko‘p yillik tajribalardan hamda tadqiqotlardan ma’lumki, har bir zot ichida har-xil tana tuzilishga ega mollar uchrab, ularning tashqi ko‘rinishi, mahsuldorlik darajasi, tashqi muhit iqlim sharoitiga moslashuvchanligi, nasl sifatlari va boshqa ko‘rsatkichlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Shu kabi bir qancha tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, bir zotga mansub hayvonlar tana tuzilishini o‘rganish, ular maqbul mahsuldorlikka ega qilib yaratishda va zotni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, o‘tkazilgan ko‘plab ilmiy-tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, yuqori mahsuldor podalar yaratishda va urchitilayotgan zotlarni takomillashtirishda hamda genofondini saqlashda

tanlash va juftlash ishlarini rejali asosda tashkil etish, shuningdek, to‘la qiymatli oziqlantirishni amalga oshirish muhim tadbirlardan biridir.

Ma’lumki, chorvachilik Mamlakat qishloq xo‘jaligi uchun aholini xilma-xil oziq-ovqat mahsulotlari bilan, yengil sanoatni esa xom-ashyo bilan ta’minlaydigan muhim soha hisoblanadi. Uning yetakchi tarmog‘i qoramolchilikni rivojlantirishdan - bosh maqsad aholini sut va qoramol go‘shtiga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, ya’ni bu borada ham mustaqillikka erishishdir. Aniqrog‘i tashqaridan sut va go‘sht mahsulotini sotib olmaslik. Buning uchun Mamlakatimiz tabiiy iqlim sharoitida rejali urchitilib kelayotgan sut va sut-go‘sht yo‘nalishidagi qora-ola, shvits, qizil cho‘l, bushuyev zotlari hamda ularning mahalliy qoramollar bilan chatishtirishdan olingan avlodlarini, maxsus go‘sht yo‘nalishidagi qozoqi oqbosh, santa-gertruda, aberdin-angus kabi qoramol zotlarini mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash birinchi galdagi vazifa hisoblanadi.

Seleksioner olimlarimiz chorvadorlar bilan hamkorlikda sersut va go‘shtdor qoramollarning guruhlari va tiplarini yaratish usullarini ishlab chiqishgan. Jumladan, qoramollarni yil davomida bir xil tipda oziqlantirish ulardan olinadigan mahsulotlarning ko‘p marta ortishini amalda ko‘rsatdi. Shuningdek, sigirlar mahsuldorligi 17 foizga, buzoq va novvoslarning o‘sish darajasi 50 foizgacha ko‘payganligini ilmiy izlanishlar to‘la isbotlab berdi.

Ma’lumki qoramollarning mahsuldorlik ko‘rsatkichlariga ularning zoti, jinsi, yoshi, oziqlantirish va asrash sharoiti kabi omillar ta’sir etadi. Olimlarning fikricha qoramollarning mahsuldorligiga ta’sir qiladigan barcha omillarining 59 foizi ozuqa, 22 foizi naslchilik va 19 foizi texnologik omillarga bog‘liq. Shunday qilib chorvachilik rivojlanishining bosh omili-ozuqadir. Tarmoqdagi qoloqlikning sabablaridan biri ham ozuqalarning sifatsizligi va ozuqabop ekin maydonlaridan unumli foydalana bilmaslikdir. Keyingi yillarda ozuqabop ekinlarning nafaqat maydoni, balki hosildorligi ham kamayib, gektaridan olinayotgan hosildorlik 4 tonna ozuqa birligini ham tashkil etmayapti. Shirali ozuqa ya’ni, makkajo‘xori va lavlagi hamda chorva mollari uchun o‘ta muhim hisoblangan va ular ratsionining asosini tashkil qiladigan beda maydonlari kamayib bormoqda. To‘yimli ozuqa hisoblangan omuxta- yemining yil sayin kamayib ketishi, sifatining pastligi chorva mollari mahsuldorligiga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mahalliy zotlarni yaxshilanishi asosiy omili sifatida sutdor qoramolchilikda xorij genofondidan foydalanish muhimligini va sutdor qoramollarni yaxshilanishi asosiy yo‘nalish sifatida sof urchitishni ko‘plab, yangi ixtisoslashgan qoramol tiplarini yaratish lozim.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan tahlillar zotli qoramollarni naslchilik hujjatlarini takomillashtirishda Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ni qo‘llash muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Naslchilik fermer xo‘jaliklarida qoramollarni tanlash va juftlash, yetakchi tizimlarning nasldor buqalaridan samarali foydalanish hamda chatishtirishda bu zotlarga qarindosh hisoblangan jahon genofondiga xos zotlar buqalaridan unumli foydalanish zotlarni genetik jihatdan takomillashtirish sur’atini oshirishni ta’minlashidan dalolat beradi. Chorva mollarining u yoki bu zotini seleksiyalashning asosi bo‘lib davlat naslchilik xizmatlari yoki xo‘jalikni chorvador mutaxassislari tomonidan podadagi har bir chorva molning mahsuldorligini baholashda olingan ma’lumotlar xizmat qiladi. Ushbu “bonitirovka” tadbiri har yili sentabr-oktabr oylarida o‘tkaziladi. Chorvachilikda asosiy seleksiya belgilari bo‘lib, bir sigirdan sog‘ib olinadigan sut miqdori, sutning yog‘lilik darajasi

va go‘sht vazni hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichlarni hisobga olib ilmiy asoslangan holda chorva mollarini boqish tashkil etiladi. Respublika aholisining oziq-ovqat bilan muntazam ta’minlab borishda qishloq xo‘jaligi hayvonlari jumladan, chorvachilikni rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu dolzarblikdan kelib chiqqan holda chorvachilik tarmoqlarida nasldorlik va mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash, seleksiya-naslchilik ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va keng ko‘lamli seleksiya ishlarini yuritish muhim vazifalardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alijanav B.A. Chorvachilikda kichik mexanizatsiya. Ma’ruza matni. Toshkent 2021y.
2. Nosirov U.N., Maqsudov I., Dosmuhamedov M.X., “O‘zbekistonda qoramolchilikni rivojlantirish omillari”, Toshkent-2011 yil, 20-23 betlar.
3. Chorvachilikni iqtisodiy islohotlar asosida rivojlantirish bo‘yicha qo‘llanma. Toshkent-1998, “O‘zbekiston” nashiriyoti, 94-150 betlar.
4. O‘zbekistonda chorvachilik - bugungi holat, muammolar va taraqqiyot istiqbollari. Agrar sektorni rivojlantirish tendensiyalari nuqtai nazaridan tahlil. Nasaf-nashriyoti-2010.
5. Sharipova O “Chorvachilikni iqtisodiy islohatlar asosida rivojlantirish” to‘plamidan. Toshkent-1998 y. 65-69 betlar.